

Yangi O'zbekistonni yangicha dunyoqarash yaratadi

Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumanidagi 16-umumiy o'rta ta'lim maktabida 2020 - yil 14-noyabr kuni shu nomdagi tadbir o'tkazildi. Tadbirda TIQXMMI "Oliy matematika" kafedrasida professor-o'qituvchilari, Toshkent viloyati mas'ul xodimlari, O'rta Chirchiq tumani RAVOTAK mahallasi xodimlari, tuman Xotin-qizlar kengashi raisi o'ribosari, tuman Nuroniylar jamiyati raisi, mahalla aholisi va faollari, ishtirok etishdi. Tadbir "Oliy matematika" kafedrasida dotsenti V.Vaxobov, F.Turaevlar tomonidan ochib berildi.



Amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqimiz taqdiridagi in'ikosi va Oliy ta'lim sohasidagi yangiliklar haqida ma'ruzalar qilindi. Shundan so'ng tuman, mahalla faollari va 16-maktab o'quvchilari ishtirokida badiiy ko'rinishlar, yosh sportchilarni chiqishlari, Vatan madh etadigan va xalqning kayfiyatini ko'taradigan she'rlar, kuy-qo'shiqlar ijro qilindi. F.Turaev tomonidan o'tkazilgan viktorina g'oliblariga badiiy kitoblar va faxriy yorliqlar topshirildi. "Yangi O'zbekiston Yangicha dunyoqarash" shiori ostida o'tayotgan tadbirni tashkilotchilari o'z maqsadlariga erishishdi. Mahalla aholisi tomonidan shunday tadbirlar sonini ko'paytirish taklifi berildi.



TIQXMMI matbuot xizmati